

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

Overdraft krediti

Overdraft krediti - bank plastik kartasi saqlovchisiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lovlarni amalga oshirishda bank plastik kartasi hisobvarag'idagi qoldiq mablag'idan ortiq miqdordagi mablag'ni ishlatish huquqini beruvchi kreditlashning qisqa muddatli shaklidir.

Ushbu kredit **milliy valyutada**, o'rtacha oylik ish haqining 3 barobarigacha, lekin eng kam ish haqining **100 barobaridan oshmagan** summada, **12 oy muddatga** ajratilib, ish haqi loyihasi doirasida emissiya qilingan **AT "Aloqabank" plastik kartasi orqali** beriladi.

Overdraft olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- overdraft olish uchun ariza-buyurtmanoma;
- pasport nusxasi;
- oxirgi 12 oy uchun daromadlar summasi ko'rsatilgan ma'lumotnoma (ma'lumotnomada lavozimi ko'rsatilgan bo'lib, korxonahabari va bosh buxgalteri tomonidan imzolangan bo'lishi lozim)
- ta'minot hujjatlari.

Overdraft quyidagi ta'minot turlarining biri asosida taqdim etiladi:

- Bank bilan tuzilgan Bosh bitim doirasida korporativ mijoz (ish beruvchi)ning kafilligi, boshqa yuridik shaxs kafilligi;
- AT "Aloqabank"da ish haqi loyihasi doirasida ochilgan plastik kartaga ega bo'lgan jismoniy shaxs kafilligi;
- Likvidli mol-mulk garovi, depozit garovi;
- Asosiy qarz, foiz va penya to'lovlarni o'z ichiga olgan kreditni qaytmaslik xatari bo'yicha sug'urta polisi.